

DUNYO BO'YICHA MIGRATSIYA, QOCHQINLAR VA MUHOJIRLAR INQIROZI

Ozodkhon Tulanboeva

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: dunyo bo'y lab migratsiya, qochqinlar va muhojirlar inqirozi zamонавиy jamiyatlarning eng dolzarb muammolaridan biriga aylangan. Har yili millionlab odamlar urushlar, tabiiy ofatlar, iqtisodiy qiyinchiliklar va ijtimoiy adolatsizliklar sababli o'z vatanlarini tark etishga majbur bo'lmoqdalar. Ushbu inqiroz nafaqat qochqinlar va muhojirlar uchun, balki qabul qiluvchi mamlakatlar uchun ham jiddiy ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Kalit so'zlar: migratsiya, qochqinlar, urushlar, xavfsizlik, iqtisodiy qiyinchiliklar, strategiyalar, global muammolar, tajribalar, huquqlar.

Аннотация: глобальный кризис миграции, беженцев и мигрантов стал одной из самых острых проблем современного общества. Ежегодно миллионы людей вынуждены покидать свои родные места из-за войн, стихийных бедствий, экономических трудностей и социальной несправедливости. Этот кризис создаёт серьёзные социальные, экономические и политические проблемы не только для беженцев и мигрантов, но и для принимающих стран.

Ключевые слова: миграция, беженцы, войны, безопасность, экономические трудности, стратегии, глобальные проблемы, опыт, права.

Abstract: the global migration, refugee and migrant crisis has become one of the most pressing problems of modern societies. Every year, millions of people are forced to leave their homelands due to wars, natural disasters, economic hardships and social injustices. This crisis creates serious social, economic and political problems not only for refugees and migrants, but also for host countries.

Key words: migration, refugees, wars, security, economic hardships, strategies, global problems, experiences, rights.

Globallashuv jarayonlari shiddat bilan kechayotgan bugungi kunda migratsiya sohasida ham yangi ko'rsatkichlarni vujudga keltirmoqda. Ayniqsa rivojlangan, daromad ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan mamlakatlarda demografik tendensiyalar, xususan raqamli texnologiyalar hamda sanoatning rivojlanishi bilan birga xotin-qizlarning mehnatiga nisbatan talabning ortishi natijasida tug'ilish sur'atlarining pasayishi, yosh jihatdan qariyalar sonining ko'payishi "an'anaviy ayol" vazifalarida ba'zi o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ayolning vazifalari transformatsiyasi natijasida bolalar va qariyalarni parvarish qilish, tozalik va xonodon yumushlarini bajaruvchilarga nisbatan bo'lgan talabni shakllantirdi. Migratsiya yo'nalishidagi

trendlarni tahlil qiladigan bo'lsak, xalqaro mehnat migratsiyasining zamonaviy xususiyatlaridan biri bu muhojirlar orasida xotin-qizlar sonining ortishidir. So'nggi yillarda migrant qabul qiluvchi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida og'ir jismoniy mehnat talab qilmaydigan sohalarning, xususan xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishi va ish joylariga nisbatan talabning oshishi kabi jahon bozoridagi zamonaviy tendensiyalar, shuningdek xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishi xalqaro mehnat migratsiyasining muhim bir qismiga aylangan xotin-qizlar mehnat migratsiyasining shakllanishiga va ayollar orasida individual migratsiya rivojlanishiga turtki bo'ldi. Dunyo bo'y lab 15 yoshdan katta bo'lgan jami aholining 3,8%ini mana shu yoshdagi ayol migrantlar hamda jami ishchilarning 5%ini ayol migrantlar tashkil qiladi. Ayol migrantlar jami ayol mehnat resurslarining 63,5%ini tashkil qiladi. Xususan, mazkur ko'rsatkich yuqori daromadli mamlakatlarda 67,8%ni, o'rtachadan yuqori daromadli mamlakatlarda 64,8%i, o'rtachadan quyi daromadli mamlakatlarda 43,1%ni hamda quyi daromadli mamlakatlarda 48,7 %ni tashkil qiladi. Ayol migrantlar asosan, uy xizmatlari, qishloq xo'jaligi sohasi, mehmonxona biznesi, sog'liqni saqlash va ta'lim kabi ijtimoiy sohalarda faoliyat ko'rsatadilar. Masalan, ular Yevropada asosan, sog'liqni saqlash va ijtimoiy sohalarda faoliyat ko'rsatadilar. Xususan, Ispaniya va Gretsiyada mehmonxona biznesida, Buyuk Britaniyada tibbiyot sohasida, Italiyada ta'lim sohasidagi ayol migrantlarning ulushi yuqori. Yevrostat ma'lumotlariga ko'ra, Yevropadagi 25-54 yoshdagi oliy ma'lumotli migrant ayollarning 30%dan ortig'i yuqori malakaga ega bo'lib, ular fan, texnologiya, matematika va tibbiyot kabi STEMM sohalar bo'yicha mutaxassis hisoblanadi. Ayol migrantlar orasida intelektual iqtisodiyotga asoslangan tajriba va ko'nikmalarning mavjudligi, zamonaviy va yirik kompaniyalardagi bo'sh ish o'rinalariga bo'lgan talablarni oshiradi. Oliy ta'limga ega bo'lgan mehnat qilish yoshidagi ayol migrantlarning mintaqalardagi ulushiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, yuqori daromadli mamlakatlarda ularning ta'lim darajasi yuqoriroq ekanligini ko'rish mumkin. Biroq, ayol mehnat migrantlari orasida xorij mamlakatlarida o'rta va yuqori malakan talab qiluvchi sohalarda faoliyat ko'rsatayotganlar bilan bir qatorda norasmiy sektorda uy xizmatchisi, enaga, qariyalar parvarishlovchi kabi past malaka talab qiluvchi ishlarda ish beruvchiga butunlay qaram bo'lib qolayotganlarning salmog'i ham anchagina. Dunyo mamlakatlarida 196 million mehnat migrantlarning 8-9%ini migrant uy xizmatchilari tashkil etadi. Bu ko'rsatkichni ayol migrantlar orasida tahlil qiladigan bo'lsak, dunyodagi jami 70 million ayol migrantlarning 12,%ga yaqini ya'ni 8,45 millionini ayol migrant uy xizmatchilari hissasiga to'g'ri keladi.

Mahalliy ishchilar bilan solishtirilganda ayol migrant uy xizmatchisi uchun yetarli xavfsiz ishlash sharoitlarining mavjud emasligi, ularga nisbatan jismoniy va jinsiy zo'ravonlik o'tkazilishi, ularning huquqlari poymol qilinishi mazkur ayol migrantlarning jismoniy va ruhiy jihatdan jarohatlanishlariga yoki bir umr kasallanib

qolishlariga olib kelmoqda. Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, majburiy mehnatdan aziyat chekayotganlarning 16,5 millionini ayollar tashkil etadi. Livandagi uy xizmatchilariga nisbatan nafaqat majburiy mehnat balki qullik, odam savdosi, shaxsiy hujjatlarni yashirib qo'yish, irqiy kamsitish va qynoqlar kabi tazyiqlar o'tkazilish ko'p uchraydi. Ayniqsa, pandemiya sharoitida mamlakatdagi ayol migrant uy xizmatchilarining norasmiy migrant statusini tanlashga majbur bo'lishlari ularga nisbatan belgilangan minimal ish haqi miqdoridan kam bo'lgan ish haqi to'lash yoki umuman ish haqi to'lamaslik hamda ish soatidan ortiqcha ishlatish kabi holatlarning ko'payishiga sabab bo'ldi. Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan 1,2 ming ishchilar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, ayol xizmatchilarining 22,5%i ish beruvchilar kunduz kunlari ularni ustilaridan qulflab ketishlari ma'lum bo'lgan. Ba'zi manbalarda ta'kidlanishicha, Livanda migrant uy xizmatchilari tomonidan dunyoga keltirilgan 15 ming nafar ta'lim olish va boshqa davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lмаган bolalar mavjud. Ayol migrantlarning o'z vatanlariga pul o'tkazmalari katta hajmni tashkil qilmasada, ular tomonidan yuborilgan pul o'tkazmalarining asosiy qismi sog'lik, ta'lim, oila va jamiyat taraqqiyoti uchun sarflanadi. Masalan, nepallik, asosan, uy xizmatchisi bo'lgan ayol migrantlarning pul o'tkazmalari mamlakat Migratsiyaning bir qancha sabablari mavjud. Ular asosan quyidagilardan iborat. Ko'plab odamlar yaxshiroq ish imkoniyatlari, yuqori maosh va hayot darajasini izlab boshqa mamlakatlarga ko'chib o'tishadi. Iqtisodiy inqirozlar, ishsizlik va kam ta'minlanganlik migratsiyani kuchaytiradi. Urushlar, nizolar va siyosiy repressiyalar sababli ko'plab insonlar o'z vatanlarini tark etishga majbur bo'ladi. Siyosiy beqarorlik va hukumatning zulmi qochqinlar oqimini keltirib chiqaradi. Iqlim o'zgarishi, tabiiy ofatlar (yomg'ir, zilzilalar, to'fonlar) ham odamlarni ko'chishga undaydi. Bunday vaziyatlarda insonlar xavfsiz joylarni qidiradilar. Ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari ham migratsiya sabablaridan biridir. Odamlar farzandlarini yaxshi ta'lim olishlari uchun boshqa mamlakatlarga olib borishni istaydilar. Dunyo bo'y lab qochqinlar soni 2023 yilga kelib rekord darajaga yetdi. BMTning Qochqinlar bo'yicha Oliy Komissari (UNHCR) ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yil oxirida qochqinlar soni 100 milliondan oshdi. Bu raqam urushlar, iqlim o'zgarishi va iqtisodiy qiyinchiliklar natijasida oshgan. Qochqinlar va muhojirlarning inqirozi bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi. Yangi joyga ko'chib kelgan muhojirlar va qochqinlar mahalliy aholi bilan ijtimoiy ziddiyatlarga duch kelishlari mumkin. Ksenofobiya va irqchilik kabi muammolar paydo bo'lishi mumkin. Qochqinlar uchun sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlariga kirish qiyin bo'lishi mumkin. Bu ularning kelajagi uchun jiddiy muammo yaratadi. Muhojirlar yangi mamlakatda ish o'rinalarini egallashlari yoki iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishlari mumkin, ammo ba'zida ular mahalliy aholi bilan raqobatlashishlari kerak bo'ladi. Dunyo bo'y lab migratsiya, qochqinlar va muhojirlar inqirozi jiddiy global

muammolardandir. Ularning sabablari turli xil bo'lib, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan bog'liqdir. Bunday vaziyatlarni hal qilish uchun xalqaro hamkorlik, siyosatlarni takomillashtirish va qochqinlarga yordam berish zarur. Faqatgina birgalikda harakat qilgan holda biz bu muammolarni yengib o'tishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar:

1. Варшавер, Рочева, 2015; Рочева 2020.
2. Пескова, Абреу Бастос, 2014
3. Key global migration figures, 2019-2022.IOM UN migration 2022, October 13
4. Eliana Rubiano, Matulrvichkatethlee Beegle, December 19, 2018 // Women and migration: Exploring the data.